

Abubakr M. MUSTAFOYEV,
*Doctoral Student of the International Islamic
 Academy of Uzbekistan*
A.Qadiri str. 11, 100011, Tashkent, Uzbekistan
E-mail: mustafoev.abubakr@bk.ru

DOI: 10.47980/MOTURIDIY/2024-4/7

SAHOBALAR VA TOBEINLAR DAVRIDAGI OHOD XABARNING FARQI

THE DIFFERENCE IN AHAD NARRATIONS DURING THE ERA OF THE COMPANIONS AND SUCCESSORS

РАЗЛИЧИЕ В АХАД ХАДИСАХ ВО ВРЕМЕНА СПОДВИЖНИКОВ И ТАБИИНОВ

KIRISH

Hanafiy mazhabi olimlari, hadislarni subutigaya'ni Rasulullohdan (s.a.v) yetib kelish yo'liga ko'ra uch qismga, mutavotir, mashhur va ohod xabarga bo'lgan. Bu taqsimot faqatgina hanafiy mazhabi olimlari tomonidan bildirilgan. Bunda birinchi qism – mutavotir, ko'rinish jihatidan ham, ma'no jihatidan ham unda hech qanday shubha bo'lmagan, ko'pchilik tomonidan izchillik ila rivoyat qilingan xabar. Bunda roviylarning o'zaro bog'liqligi shu darajada to'liq va mukammal bo'ladiki bunday xabarga hech qanday shubha bo'lmaydi. Ikkinchi qism – mashhur, sahobalar davrida surati jihatidan ohod ko'rinishda va roviylardagi o'zaro bog'liqlikda shubhali bo'lgan, ammo ma'no jihatidan mutavotir bo'lgan xabar. Uchinchi qism – ohod, asliga ko'ra, ohodligi jihatidan, ko'rinishida va roviylarning o'zaro bog'liqligida shubha bo'lgan, ma'no jihatidan mutavotirlik darajasiga ko'tarilmaganligi uchun ma'nosida ham shubha bo'lgan ohod xabar.

Sahobalar davrida surati jihatidan ohod ko'rinishda va roviylardagi o'zaro bog'liqligida shubhali bo'lgan, ammo ma'no jihatidan mutavotir bo'lgan xabarlar tobeinlar davrida «mashhur» deb nomlangan.

ASOSIY QISM

Mashhur xabar lug'atda الشهرة – (shuhrat) so'zidan olingan bo'lib, masalaning ravshanligi, biror narsaning ko'rinishi ma'nolarini bildiradi

(Muhammad ibn Muhammad ibn Abdurazzoq Zabidiy, 1979:18). Istitlohda – hanafiylar jamoasining ko'pchiligiga ko'ra, birinchi asrda ohod deb tanilgan, keyinchalik ikkinchi va uchinchi asrlarda tarqalib, mutavotir bo'lib, yolg'onga kelishib olishlari mahol bo'lgan darajada ko'pchilik tomonidan rivoyat qilingan xabar. Mashhurning bu ta'rifi, ikkinchi va uchinchi asrda mutavotir darajasiga ko'tarilishining e'tiborga olinishida hanafiy olimlari ittifoq qilganlar. (Abu Zayd Dabusi, 2001:212; Abul Umr Bazdaviy, 2015:52; Abu Bakr Saraxsiy, 1994:292, Muhammad ibn Muhammad ibn Umar Axsikotiy, 1996:69, Jaloliddin Muhammad ibn Amr Xo'jandiy Xobbaziy, 2005:326; Ahmad ibn Ali Bag'dodiy Ba'labakkiy, 2004:56; Muhammad ibn Abdulvohid Iskandariy, 2022:311; Ahmad ibn Muhammad Iskandariy Shumunniy, 2003:96; Mulla Ali Qori, 2006:30).

Hanafiy mazhabi olimlari nazdida mashhur xabarning tarqalib, mutavotir bo'lishi ikkinchi va uchinchi asrda sodir bo'lishi lozim. Undan keyingi asrlarda tarqalib, mashhur bo'lishi e'tiborga olinmaydi. Chunki, ko'pgina xabarlar, darajasidan qat'iy nazar shu uch asrdan so'ng mashhur bo'lib ketgan.

Bu hanafiylar nazdida mashhur hadisning eng maqbul va to'g'ri ta'rifi hisoblanadi. Samarqandiy, Lamishiy, Buxoriy, Xo'jandiy, Itqoniy, Ruhoviy va Mulla Ali Qori singari olimlar tomonidan yana bir boshqa ta'rif bildirilgan bo'lib, unda: «Olimlar uni qabul qilgan bo'lishi lozim», (Abdul Majid Turkmoniy, 2020:141) deyiladi.

Olimlar asarlarida mazkur jumlaning keltirishgan bo'lsa-da, asli uning muallifi kimligini keltirishmagan, boshqa kitoblarda bu borada tayinli so'z ketmagan. Faqatgina Abulyusr Pazdaviy «Mashhur xabar haqida fasl» bobida: «Agar Payg'ambarning so'zlari shubha bilan isbotlansa, yolg'on gapirishga ittifoq qilishlari mahol bo'lgan, ko'rinishidan durust bo'lgan bir jamoa rivoyat qilsa yoki odil bir kishi rivoyat qilsa, faqihlar orasida mashhur bo'lib ularning nazdida qabul bo'lgan va unga amal qilingan bo'lsa xuddi mutavotir xabardek bo'ladi», (Abul Yusr Pazdaviy, 2003:107-108) deb aytadi.

Bir jihatdan, hammaga ma'lum bo'lgan ta'rifga qarama-qarshi fikr aytilganidan kelib chiqib ikki ta'rif o'rtasida ziddiyat bor deyish mumkin. Ammo ikki ta'rif o'rtasida hech qanday ziddiyat yo'q, chunki mashhur xabar ikkinchi va uchinchi asrlarda hammaga ma'lum bo'lgan bo'lsa, unda u

Annotatsiya. Ushbu maqolada hanafiy mazhabi olimlarining, hadislarni Rasululloh (s.a.v)dan yetib kelish yo'liga ko'ra taqsimlagan uch qismi – mutavotir, mashhur va ohod xabarlarining oxirgi ikki qismi, mashhur va ohod xabarlar umumiy va o'xshash jihatlarini o'zaro qiyosiy o'rganishga qaratilgan.

Ushbu tadqiqot natijasida hanafiy mazhabi olimlarining hadislarni yetib kelish yo'liga ko'ra taqsimotlarining boshqa mazhablardan farqli o'laroq mukammalroq, o'ziga xos jihatlarini aniqlangan.

O'rganishlar natijasida, mashhur hadis, sahobalar davrida surati jihatidan ohod ko'rinishda va roviylardagi o'zaro bog'liqlikda shubhali bo'lgan, ammo ma'no jihatidan mutavotir bo'lganligi, ohod esa, asliga ko'ra, ohodligi jihatidan, ko'rinishida va roviylarning o'zaro bog'liqligida ma'lum bir shubha bo'lgan, ma'no jihatidan mutavotirlik darajasiga ko'tarilmaganligi uchun ma'nosida ham shubha bo'lgan hadis ekani bayon qilingan.

Shuningdek, mazkur tadqiqot natijasida mazhab olimlari tomonidan, ohod xabarlarini qabul qilish, undan shari'iy dalil sifatida foydalanish haqida bildirgan fikrlari, keltirib o'tgan dalillari tahlil asosida o'rganib chiqilgan. Olimlar tomonidan ohod xabarni inkor qiluvchi kimsaning hukmi borasida qilgan xulosalar keltirilgan. Qolaversa, mavzuga doir turli hadislarga ham o'rin ajratilgan.

Quyida o'rganib chiqilgan tadqiqot natijasi, hanafiy mazhabi asoslari, qoidalari va istilohlarini joriy qilishda, Imom Moturidiy, Abdulaziz Buxoriy, Abul Barakat Nasafi, Shamsul Ayma Halvoni singari yurtimiz olimlarining xizmati beqiyos ekanligini ko'rsatib turibdi.

Kalit so'zlar: ohod, mashhur, hanafiy mazhabi, usul al-fiqh, Abdulaziz Buxoriy, Hidoya, Bazdaviy, usul al-hadis, Saraxsiy, zonn, yaqiniy ilm.

Abstract. This article examines the comparative aspects of two categories of narrations – Mashhur and Ahad – as classified by Hanafi scholars based on the transmission pathways of hadith from the Prophet Muhammad (peace be upon him). The study focuses on exploring the general and similar characteristics of these categories.

The research reveals that the Hanafi scholars' classification of hadith based on transmission methods is more comprehensive and distinct compared to other Islamic schools of thought. The findings indicate that, during the era of the Companions, Mashhur narrations were technically considered Ahad in form and were initially subject to doubts regarding the reliability of their transmitters. However, in terms of meaning, they attained a level of certainty comparable to Mutawatir. In contrast, Ahad narrations inherently contained uncertainties in both their chain of transmission and meaning, as they did not meet the criteria to achieve the status of Mutawatir. This lack of certainty also led to doubts regarding their content.

Additionally, the study analyzes the perspectives of different schools of thought on the acceptance of Ahad narrations and their use as evidence in Islamic jurisprudence (Shari'ah), along with the arguments supporting these views. It also summarizes the conclusions of scholars regarding the status of individuals who reject Ahad narrations. Various hadiths related to the topic are also discussed to provide further context.

The findings of this research underscore the invaluable contributions of prominent Hanafi scholars such as Imam Maturidi, Abdulaziz Bukhari, Abul Barakat Nasafi, and Shamsul Ayma Halwani in developing and solidifying the principles, methodologies, and terminology of the Hanafi school of thought.

Keywords: Ahad, Mashhur, Hanafi school, Usul al-Fiqh, Abdulaziz Bukhari, Hidaya, Bazdawi, Usul al-Hadith, Saraxsi, Zann (speculative knowledge), Yaqini Ilm (certain knowledge).

Аннотация. Данная статья сосредоточена на сравнительном изучении двух категорий хадисов – маишхур и ахад, которые ханафитские ученые классифицировали в зависимости от пути их передачи от Пророка Мухаммада (мир ему и благословение Аллаха). Цель исследования – выявить их общие и схожие аспекты.

В результате исследования было установлено, что классификация хадисов учеными ханафитского мазхаба на основе их путей передачи более совершенна и уникальна по сравнению с другими мазхабами. Результаты показывают, что хадисы категории маишхур, которые в эпоху сподвижников считались ахад по своей форме, достигли уровня уверенности в значении, аналогичного мутватиру. В то время как ахад хадисы изначально содержат сомнения в цепочке передачи и остаются неопределенными по своему смыслу, так как они не достигают уровня мутватира.

Кроме того, в статье анализируются взгляды различных мазхабов на принятие ахад хадисов и их использование в качестве доказательства в шариате, а также приводятся аргументы, выдвинутые ими. Также были обобщены выводы о статусе тех, кто отвергает ахад хадисы. В статье также обсуждаются различные хадисы, относящиеся к теме.

Результаты исследования подчеркивают значительный вклад таких ученых, как Имам Матуриди, Абдулазиз Бухари, Абуль Баракат Насафи и Шамсулаимма Халвани, в разработку и продвижение принципов, правил и терминологии ханафитского мазхаба.

Ключевые слова: ахад, маишхур, ханафитский мазхаб, усуль аль-фикх, Абдулазиз Бухари, Хидая, Баздавий, усуль аль-хадис, Сарахси, занн (предполагаемое знание), якиний ильм (достоверное знание).

xabar barcha nazdida qabul qilinganligi va unga amal qilinganligi ham aniq bo'ladi. Bu esa o'z navbatida faqihlar mashhur xabar ta'rifiga ikki shart: mashhurlik va qabul qilinganlikni qaydlab qo'yish borasida mulohaza qilganliklarini tasdiqlaydi.

Mashhur hadis tadqiqotchisi Bihoriy: «U aslida ohod xabar bo'lib, ikkinchi va uchinchi asrda mutavotir darajasiga yetgan va ummat uni qabul qilgan xabar», (Muhibulloh Abdushshakur Hindiy Bihoriy, 1986:79) deb keltiradi. Bundan ma'lum bo'ladiki ikki ta'rif o'rtasida hech qanday qarama-qarshilik yoki ziddiyat yo'q.

Mashhur hadis ta'rif borasida yuqorida keltirilgan mulohazalar hanafiy mazhabi olimlariga tegishli bo'lib, muhaddislarning istilohi bundan farq qiladi. Muhaddislar istilohiga ko'ra mashhur hadis: «Ikki yoki undan ko'p bo'lsa-da cheklangan sanadga ega, mutavotir darajasiga yetmagan xabar» (Ibn Hajar Asqaloniy, 2011:34; Jaloliddin Suyutiy, 2013:49; Samsiddin Saxoviy, 2005:8).

Hanafiyalar va muhaddislar istilohlari orasida bir jihatdan umumiylik va boshqa jihatdan turliklik borligi sababli ular o'rtasida uch xil ko'rinish, bitta o'zaro umumiylik va ikkita qarama-qarshilik hosil bo'ladi.

Ikki mazhab ta'riflari orasidagi umumiylik shundaki, mashhur xabarni mutavotir darajasiga yetmagan holda uch yoki undan ortiq sahoba tomonidan rivoyat qilingan, so'ngra tobeinlar va tabaa tobeinlar (tobeinlardan keyingi davr vakillari) davrida mutavotir holda rivoyat qilingan bo'lishi lozim. Hanafiyalar va muhaddislarning istilohi orasidagi o'zaro muvofiqlik jihat shunda. Istilohlardagi ikki qarama-qarshi ko'rinish:

Sahobalardan uchasi yoki to'rt yoki undan ko'pi (mutavotir darajasiga yetmagan holda) rivoyat qilib, tobeinlar va tabaa tobeinlar ham xuddi shunday rivoyat qilgan hadis. Bu hanafiy mazhabi emas balki muhaddislar ta'rifiga tegishli.

Bir sahoba tomonidan rivoyat qilinib keyin bir guruh tobeinlar uni mutavotir holda rivoyat qildilar. Bu jihat hanafiy mazhabi ta'rifiga muvofiq bo'lib, muhaddislar ta'rifiga to'g'ri kelmaydi.

Merosxo'rga vasiyat yo'qligi borasidagi hadis, hanafiy olimlari yoritib bergan mashhur hadis qismiga misollardan biri bo'lib: «Albatta, Alloh taolo har bir haq egasiga o'z haqqini bergan. Shunday ekan merosxo'rga vasiyat yo'q» (Abu Zayd Dabusi, 2001:212; Abul Usr Bazdaviy, 2015:152; Abu Bakr Saraxsiy, 1994:292).

Imom Saraxsiy: «Bu mashhur hadis, ulamolar qabul va amal bilan tan olganlar. Bizning nazdimizda buning misli bilan Kitobni nasx qilish mumkin. Zero ulamolar qabul va amal bilan tan olgan xabarlari Rasululloh (s.a.v.)dan eshitilgani singaridir. Agar u zotdan eshitdik, deb faraz qilganimizda: «Bu oyatga amal qilmanglar, chunki uning hukmi mansuxdir. Unga amal qilish joiz emas», derdilar», deb keltiradi (Abdulmajid Juzajoniy, 2021:29).

Yana bir mashhur hadis: «Ota bolasi sababli qatl qilinmaydi». Abu Bakr Jassos bu hadisni quyidagicha bayon qiladi: «Bu mashhur mustafiz xabardir. Umar ibn Xattob roziyallohu anhu sahobalar huzurida bunga hukm chiqargan. Ulardan birortasi bunga qarshilik ko'rsatmagan. Demak, hukm chiqarishda u «Merosxo'rga vasiyat yo'q» kabi hadislar maqomida turadi, hamda mutavotir mustafiz o'rnida bo'ladi» (Abu Bakr Jassos, 1994:204).

Ayolni amma yoki xolasi bilan bir nikohda jamlash haromligi borasida kelgan mashhur hadis: Rasululloh (s.a.v.) ayolning amma yoki xolasining ustiga nikohlanishidan qaytardilar».

Bu hadisni Abu Hurayra va Jobir roziyallohu anhumalar rivoyat qilgan bo'lib, amal qilish va qabul qilish borasida ulamolar o'rtasida mashhur hadisdir.

Mashhur deyilganda xabar ikkinchi va uchinchi asrlarda mashhur bo'lib ketishi e'tiborga olinadi. Undan keyingi davrda mashhurlik qozonishi hisobga o'tmaydi. Chunki ko'plab ohodlar ikkinchi va uchinchi asrdan keyin mashhurga aylangan. Lekin ular mashhur hisoblanmaydi.

Hanafiy olimlar mashhur va mustafiz o'rtasini quyidagicha farqlaganlar: «Ohod xabarni mustafiz deb nomlangan xili bor, u – uch yoki undan ko'proq kishi rivoyat qilgan xabardir. Mashhur esa, aslida ohod bo'lib, ikkinchi, uchinchi asrlarda mutavotirga aylangan xabardir» (Abu Bakr Saraxsiy, 1994:232).

MUHOKAMA

Hanafiy mazhabi faqihlari mashhur hadisning hukmi borasida ikki xil fikr bildirganlar. Birinchi fikr: «Mashhur mutavotirning bir qismi bo'lib, zaruriy ilmni emas, balki dalillash lozim bo'lgan nazariy ilmni ifodalaydi» (Abdul Majid Turkmoniy, 2020:144). Bu Abu Bakr Jassosning fikri bo'lib, Abul Yusr Bazdaviy, Alouddin Samarqandiy va Dehlaviy ham shu fikrni ma'qullagan.

Ikkinchi fikr: mashhur mutavotirning bir qismi emas va uning hukmida ham emas. Balki mutavotir

va ohodning o'rtasida, mutavotirdan past va ohoddan yuqori maqomda turadi. Natijada mashhur xabar asli ohodligi e'tiborga olinmasa, qalb uni shubhali emasligidan xotirjam bo'ladi. Hanafiyilar buni الطمأنينة – xotirjamlik, ya'ni «ishonchli xabar» deb atashadi. Qat'iy ilmga yaqinroq bo'lgan zonniy ilmni ifodalaydi. Bu Qozi Iso ibn Obonning fikri bo'lib, uni ko'pchilik hanafiy mazhabi faqihlari, jumladan: Abu Zayd Dabusi, Faxrul Islom Bazdaviy, Saraxsiy, Shoshiy Axsikotiy, Xobbaziy, Ibn Soatiy, Nasafiy, Sadrushsharia, Fanoriy, Ibn Humom va «Usul ul-Bazdaviy» va «al-Manor» asarlarini sharhlagan olimlar ma'qullagan.

Abu Bakr Jassos va u kishiga ergashganlar o'z fikrlarini quyidagicha dalillashgan: «Mashhur bu – ikkinchi va uchinchi asr olimlari tomonidan qabul yo'liga ko'ra rivoyat qilingan hadis. Demak, uning qabul bo'lishida salaf olimlarining ijmosi bor. Ijmo esa qat'iy ilmni lozim qiladi, shunday ekan, mashhur qat'iy ilmni ifodalaydi» (Abu Bakr Jassos, 1994:520).

Jumhur hanafiy olimlar, mashhur garchi ikkinchi va uchinchi asrlarda mutavotir holda rivoyat qilingan bo'lsa-da, birinchi asrda ohodligi nuqtai nazaridan unda yolg'on shubhasi saqlanib qoladi. Shu sababdan birinchi asrda roviylari oz bo'lib, mutavotirlik darajasiga yetmadi. Qat'iy ilm esa, xabarda gumon bo'lmagan paytda sobit bo'ladi. Bu holatda esa, avvalgi asr nuqtai nazaridan shubha bor, deb o'z fikrlarini dalillaganlar.

Hanafiy olimlarining ko'pchiligi yoqlagan fikr eng to'g'risi bo'lib, ularning dalillariga ko'ra mashhur qat'iy ilmni emas, ishonch va xotirjamlikni ifoda etadi. Chunki, olimlar unga qanchalik ishonch bildirgan bo'lsa-da, birinchi asrdagi to'xtalish va kesilish gumoni mavjud. Uni inkor etishning iloji yo'q.

Birinchi fikrni dalillash uchun keltirilgan: «Ijmo aniq ilmni ifodalaydi», degan mulohazaga muhaqqiq Ibn Humom: «Biz ularning ijmosiga ko'ra, qabul qilish shartlarini topilganligi jihatidan rivoyatning to'g'riligini aniq ekanligini tasdiqlaymiz. Uni Rasululloh (s.a.v) tomonlaridan aniq rivoyat qilinganini emas», deb javob beradi.

Bundan kelib chiqadiki, hanafiy faqihlari mashhur ya'ni unda qabul qilish shartlarining barchasi topilgan mashhur hadisning rivoyati sahih ekanligiga ijmo qilishgan. Uning Rasululloh (s.a.v) ga qat'iy nisbat berilishiga ijmo qilishmagan.

Hanafiy mazhabining ko'pgina olimlari mashhur hadisni inkor qiluvchi kofir bo'lmashligini, ammo

qattiq gunohkor bo'lishini ta'kidlaydi. Ularga ko'ra mashhur hadis aniq ilmni emas, balki xotirjamlikni ifoda etadi.

Abu Bakr Jassos ham Iso Ibn Abonning: «Uni inkor qiluvchi qattiq gunohkor bo'ladi, ammo kofir bo'lmaydi» (Abu Bakr Jassos, 1994:519-520), degan gapini dalil qilib, mashhur hadisni inkor qiluvchi kofir bo'lmashligini aytgan.

Abul Yusr Bazdaviy ham aynan shu fikrni yoqlab: «Olim imkon boricha bir musulmondan kufri uzoqlashtirishi kerak» (Abul Yusr Bazdaviy, 2003:111), degan. Bu bilan olim nazdida mashhur hadisni inkor qiluvchisi kofir bo'lmashligi ayon bo'ladi.

Xuddi shuningdek, Samarqandiy ham mutavotir xilofida mashhur hadisni inkor qiluvchi kofir bo'lmaydi deb, Iso ibn Abonning: «Uni inkor qiluvchi qattiq gunohkor bo'ladi, ammo kofir bo'lmaydi», so'zini keltiradi.

Yuqoridagi bahslardan ko'rinib turibdiki, Abu Bakr Jassos, Abul Yusr va Samarqandiydek mashhur hadis nazariy ilmni ifodalashi tarafdori bo'lganlar ham uni inkor qiluvchi kofir bo'lmashligini aytishgan. Demak, Imom Saraxsiy aytganidek (Abu Bakr Saraxsiy, 1994:292), hanafiy mazhabi faqihlari mashhur hadisni inkor qiluvchi kofir bo'lmashligiga ittifoq qilgan.

Shunday bo'lsada, ammo Abul Yusrdan ko'pgina olimlardan naql qilib keltirilgan boshqa bir qovlda: «Mashhur xabar bilan sobit bo'lgan ilmni inkor qiluvchi haqida ko'pchilik olimlar mutavotirni inkor qiluvchiga bergan javobni bergan. Ba'zilar esa kofir bo'lmaydi degan», deb keltiradi. Shamsul Ayma Abu Muhammad Abdulaziz ibn Ahmad Halvoniy ham: «Mashhur mutavotir bilan tengdir» (Abul Yusr Bazdaviy, 2003:110-111), deydi.

NATIJA

Yuqorida keltirilgan masalardan ikki narsa ayon bo'ladi:

Abul Yusrning fikriga ko'ra, ko'pchilik ulamolar mashhurni inkor qiluvchini dindan chiqadi deyishadi va bu borada mutavotir bilan mashhurni teng deb bilishadi.

Shamsul Ayma Halavoniy ham mashhur hadisni inkor qilgan kishi kofir bo'lishi fikrini yoqlagan.

Bu ikkala masalada mulohaza qilib ko'riladigan jihatlar bor: Birinchisi: Abul Yusr «ko'pgina olimlar» deb atagan zotlar kimlar? Ularning zikri biror bir usul kitoblarida topilmadi. Chunki ko'pchilik olimlar

mashhur masalada boshqacha fikrni bildirishlari mahol. Binobarin hanafiy mazhabining usul kitoblarida bu fikrni yoqlagan biror olimning zikri yoki ismi haqida gapirilmagan. Agarda bu masalada takfirni yoqlasa, mashhur hadis zonniy ilmni ifodalashini tarafdori bo'lgan Abu Bakr Jassos aytgan bo'lar edi. Ammo yuqoridagi mulohazalardan ko'rinib turibdiki, hatto Abu Bakr Jassos ham uni inkor qiluvchi dindan chiqishi haqida sukut saqlagan.

Ikkinchisiga kelsak: Saraxsiy va Abul Yusrning rivoyati bir-biriga ziddir. Saraxsiy barcha, inkor qiluvchi takfir bo'lmasligining tarafdori bo'lganini aytgan. Vaholanki u ikkalasi bir tabaqadan bo'lib, Shamsul Aymma Halvoniydin ta'lim olgan. Hammaga ma'lum masalada birlari ustozlaridan kofir bo'lmaslikni, birlari inkor qiluvchi kofir bo'lishini rivoyat qilishlari haqiqatdan yiroq ish.

Ohod xabarining ta'rifi va uning hukmi borasida mazhablar turlicha qarashlarni bildirgan. Hanafiy mazhabiga ko'ra ohod xabar: bir, ikki, uch yoki undan ortiq kishi tomonidan rivoyat qilingan xabar, undagi mutavotir va mashhurdan past darajada bo'lgandan so'ng sanaddagi adadi e'tiborga olinmaydi (Abu Zayd Dabusi, 2001:170, Abul Ushr Bazdaviy, 2015:112, Jaloliddin Muhammad ibn Amr Xo'jandiy Xabboziy, 2005:326, Abul Barakot Abdulloh ibn Ahmad Nasafiy, 2004:156).

Lekin, muhaddislar fikricha ohod mutavotir hadis shartlari unda topilmaydigan xabardir va uning uchta toifasi bor: mashhur, aziz va g'arib (Ibn Hajar Asqaloni, 2011:37).

Hanafiy mazhabining barcha olimlariga ko'ra, agar ohod xabarda bo'lishi lozim bo'lgan shartlar topilsa, unga amal qilish shart bo'lgan zon («qat'iy emas» degan ma'noni ifodalaydi, Muhammad Sodik Muhammad Yusuf, 2010:22)ni ifodalaydi. Ammo yaqiniy ilmni ifodalamaydi (Abdul Majid Turkmoniy, 2020:151). «Usul al-Bazdaviy» va «Al-Manar» asarlarining barcha shorihlari ham shu fikrni ma'qullagan. Kosoniyning «Bada'i' us-Sano'i» asarida «Jabira (jarohat o'rni) ga mas'h tortish vojibligi, Ali (r.a) tomonidan rivoyat qilingan hadisga ko'ra sobit bo'lgan. Garchi u yaqiniy ilmni ifodalamaydigan ohod bo'lsa-da, unga amal qilish vojib hisoblanadi» (Alouddin Kosoni, 2003:19), deb keltiriladi.

Bu borada imom Saraxsiy: «Bizning yo'limiz shuki, u amal qilishni shart qiladi, lekin yaqiniy

ilmni ifodalamaydi» (Abu Bakr Saraxsiy, 1994:321), deydi.

Unga amal qilish shart bo'lishining ma'nosi shuki, agar u vojib (shariat uni bajarishni jazm ila, ammo qat'iy bo'lmagan dalil bilan talab qilgan amal, Muhammad Sodik Muhammad Yusuf, 2010:9) ga dalolat qilsa va bu borada hech qanday man qiluvchi omillar bo'lmasa, tavsiyaviy ma'noga dalolat qilgan xabarlar vojibga dalolat qilmaganligi sababidan unga amal qilish shart hisoblanmaydi. Biror bir hukmni inkor etilishida ham shu qoidaga qiyoslanadi. Ya'ni agar unda biror bir hukmni amaldan qoldirib, boshqasini joriy qilish ma'nosi topilsagina eski hukmni mansux (mavjud shariy hukm amaldan qolishi) qiladi. Ammo, ba'zi o'rinlarda: «ohod ma'nosiga qaralmasdan har qanday o'rinda unga amal qilinishi shart bo'lgan xabar» (Abdul Hayy Laknaviy, 1995:64), deb ham keltirilgan.

Hanafiy mazhabi olimlari, molikiylar va barcha shofeiylar faqihlari ohod xabar hukmi borasida yakdil bo'lgan (Ibn Qossor, 1996:67).

Hanbaliylarga kelsak, Imom Ahmaddan rivoyat qilingan xabarlar turlicha kelgan. U kishining zabardast shogirdlari va hanbaliy mazhabi muhaqqiq faqihlari tomonidan jumhur singari ohod xabar yaqiniy ilmni ifodalamasligi va unga amal qilish shartligi aytilgan. Imom Ahmad ibn Hanbaldan ohod xabar ilmni vojib qilishi (yaqiniy ilm) haqida kelgan xabarlarni esa, dalillar ya'ni omma (olimlar jamoasi) uni qabul qilgan bo'lishi singari qayd etilgan qo'shimcha shartlar asosida voqe bo'lishini aytilgan o'tishgan.

Abul Vafo ibn Aqil Hanbaliy Ahmad ibn Hanbaldan rivoyat qilingan xabarlar haqida: «Ohod hadis ilmni ifodalamaydi, na zaruriy, na iktisobiy (u ifodalaydigan ma'noni tushunish uchun qo'shimcha izlanishni talab qiluvchi ilm). Bu to'g'risida sohibimiz (Ahmad ibn Hanbal) dan rivoyat qilingan ikkala xabardan ham nazarda tutilgan eng to'g'ri gap shu. Va u kishidan ilmni hosil bo'lishi haqidagi xabarlar faqatgina siqa (ishonchli) kishidan rivoyat qilingan xabar haqida edi, Imom ibn Farro shunday deb ta'vil qilgan edilar» (Ali ibn Aqil Hanbaliy, 2008:170), deb keltiradi. Bu fikrni Imom Kaluzoni (Kaluzoni, 1986:44-46), Ibn Qudoma Maqdisiy (Ibn Qudoma, 1998:176), Ibn Abdul Hodi (Ibn Abdul Hodi, 2012:213-214), Ibn al-Lihom (Ibn al-Lihom, 1980:83), Ibn un-Najjor (Ibn un-Najjor Futuhiy, 1982:348-351) va Shinqitiy (Shinqitiy, 1999:181) singari hanbaliy mazhabi olimlari qo'llab quvvatlagan.

Bular hanbaliy mazhabining ko'zga ko'ringan eng zabardast olimlari bo'lib, ularga ko'ra eng to'g'rirog'i, ohod xabar ilmni hosil qilmaydi, balki unga amal qilishni shart qiladi. Bu borada ular jumhur bilan hamfikir ekani ko'rinib turibdi. Ammo, ba'zi hanafiy olimlari (Alouddin Abdulaziz Buxoriy, 1997:681) hanbaliylarga nisbat bergan holda, ular ohod xabar ilmni ham, amalni ham vojib qiladi, deb keltirgan. Bu o'rinda bir mazhabning qaysidir masala borasidagi fikri qanday ekani, aynan shu mazhab faqihlari tomonidan bildirilgan fikrga tayangan holda olinadi. Demak hanbaliy mazhabiga nisbat berilgan fikrlar emas, balki shu mazhab faqihlarining fikri e'tiborliroq hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytiladigan bo'lsa, hanafiy mazhabi olimlari nazdida, hadis ikkinchi va uchinchi asrda tarqalib, mutavotir bo'lsa, mashhur bo'ladi. Undan keyingi asrlarda tarqalib, mashhur bo'lishi e'tiborga olinmaydi. Chunki, ko'pgina xabarlar, darajasidan qat'iy nazar shu uch asrdan so'ng mashhur bo'lib ketgan.

Hanafiy olimlari nazdida mashhur va mustafiz o'rtasidagi farq, mustafiz uch yoki undan ko'proq kishi rivoyat qilgan, mashhur esa, aslida ohod bo'lib, ikkinchi, uchinchi asrlarda mutavotirga aylangan xabardir.

Hanafiy mazhabi faqihlari mashhur hadisning hukmi borasida ikki xil fikr bildirganlar. Birinchi fikr: mashhur mutavotirning bir qismi bo'lib, zaruriy ilmni emas, balki dalillash lozim bo'lgan nazariy ilmni ifodalaydi. Ikkinchi fikr: mashhur mutavotirning bir qismi emas va uning hukmida ham emas. Balki mutavotir va ohodning o'rtasida, mutavotirdan past va ohoddan yuqori maqomda turadi.

Hanafiy mazhabining ko'pgina olimlari mashhur hadisni inkor qiluvchi kofir bo'lmasligini, ammo qattiq gunohkor bo'lishini ta'kidlaydi. Hanafiy mazhabining barcha olimlariga ko'ra, agar ohod xabarda bo'lishi lozim bo'lgan shartlar topilsa, unga amal qilish shart bo'ladi, ammo yaqiniy ilmni ifodalamaydi.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. (2011). Mustalahul hadis. Toshkent: Sharq.
2. Nur al-Din Itr. (2020). Manhajun naqd fi ulum al-hadis. Damashq: Dar al-Fikr.
3. Turkmoniy, A. (2020). Dirosat fi usul al-hadis ala manhajil hanafiy. Bayrut: Dar Ibn Kasir.
4. Zabidiy, M.M.M.A. (1979). Taj ul-urus min javahir il-qomus (Jild 18). Quvayt: Matbaatu Quvayt.
5. Bazdaviy, A.Y. (2003). Usulu shayx ul-islom. Qohira: Maktabat uz-Zuhriyya.
6. Hindiy Bihoriy, M. A. (n.d.). Musallim us-subut (Jild 2).
7. Abu Hafs al-Juzajani. (2021). Qovaid fi ulumil hadisin Nabaviyyi ala manhaji sadatul hanafiyyati. Istanbul: Darul Kutubul Arobiy.
8. Abu Abdillah al-Hakim al-Naysaburi. (n.d.). Mustadrok us-Sahihayn (Jild 3).
9. Jassos, A.B. (n.d.). Al-Fusul fil usul (Jild 1).
10. Bazdaviy, AY. (2003). Usulu shayx ul-islom. Qohira: Maktabat uz-Zuhriyya.
11. Saraxsiy, A.B. (1994). Usul us-saraxsiy (Jild 1). Haydarobod: Lajnatu Ihyau Maarif ul-USmaniyya.
12. Halvoni, A.M.A. (n.d.). Shamsul Aimmai Akbar.
13. Asqaloni, I.H. (2011). Nuzhat un-nazar fi tavzihi nuxbat ul-fikar. Pokiston: Bushro.
14. Kosoni, A. (2003). Bada'i' us-Sano'i' fi tartib ash-sharoi' (Jild 1). Bayrut: DKI.
15. Sindi, M.A. (n.d.). Im'an un-nazar;
16. Laknaviy, A. H. (1995). Zofar ul-amaniy. Halab: Maktabatul Matbuat ul-Islamiyya.
17. Ibn Qossor. (1996). Muqaddimatu fi usulil fiqh. Darul G'orbul Islamiy.
18. Hanbaliy, A. I. A. (2008). Vozih fi usulil fiqh (Jild 2). Saudiya: Maktabatur Rushd.
19. Kaluzoni, A. (1986). Tamhid fi usulil fiqh (Jild 3). Jidda: Darul Madaniy.
20. Ibn Qudoma. (1998). Rovzot un-nozir va jannat ul-munzir (Jild 1). Makka: Maktabat ul-Makkiyya.
21. Ibn Abdul Hodi. (2012). Sharhu g'oyat us-sul ilailmil usul. Quvayt: G'ors.
22. Ibn al-Lihom. (1980). Muxtasar fi usulil fiqh. Makka: Jomiatu Malik Abdulaziz.
23. Ibn un-Najjor Futuhiy. (1982). Sharhu kavkab ul-muniyr (Jild 1). Makka: Jamiatu Ummul Quro.
24. Shinqitiy. (1999). Muzakkirotu fi usulil fiqh. Misr: Dorul Yaqiyn.
25. Buxoriy, A. A. (1997). Kashf ul-asror sharhu usul al-Bazdaviy (Jild 2). Bayrut: Darul Kutub al-Ilmiyya.

REFERENCES

1. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. (2011). Mustalahul hadis. Tashkent: Sharq.
2. Nur al-Din Itr. (2020). Manhaj al-Naqd fi Ulum al-Hadith. Damascus: Dar al-Fikr.
3. Abu al-Wafa al-Turkumani. (2020). Dirasat fi Usul al-Hadith ala Manhaj al-Hanafiyyah. Beirut: Dar Ibn Kathir.
4. Muhammad Murtada al-Zabidi. (1979). Taj al-Arus min Jawahir al-Qamus (Vol. 18). Kuwait: Matba'at al-Kuwait.

5. Abu Ya'qub al-Bazdawi. (2003). Usul Shaykh al-Islam. Cairo: Maktabat al-Zuhriyya.
6. Muhammad Amil al-Hindi al-Bihari. (n.d.). Musallim al-Thubut (Vol. 2).
7. Abu Hafs al-Juzajani. (2021). Qawa'id fi Ulum al-Hadith al-Nabawi ala Manhaj Sadat al-Hanafiyyah. Istanbul: Dar al-Kutub al-Arabiyyah.
8. Abu Abdillah al-Hakim al-Naysaburi. (n.d.). Mustadrak al-Sahihayn (Vol. 3).
9. Abu Bakr al-Jassas. (n.d.). Al-Fusul fi al-Usul (Vol. 1).
10. Bazdaviy, AY. (2003). Usulu shayx ul-islom. Qohira: Maktabat uz-Zuhriyya.
11. Abu Bakr al-Sarakhsi. (1994). Usul al-Sarakhsi (Vol. 1). Hyderabad: Lajnat Ihya' Ma'arif al-'Uthmaniyyah.
12. Abu Ma'shar Ahmad al-Halwani. (n.d.). Shams al-A'immah al-Akbar.
13. Ibn Hajar al-Asqalani. (2011). Nuzhat al-Nazar fi Tawzih Nukhbat al-Fikr. Pakistan: Bushra.
14. Ala al-Din al-Kasani. (2003). Bada'i' al-Sana'i' fi Tartib al-Shara'i' (Vol. 1). Beirut: Dar al-Kutub al-Ilmiyyah (DKI).
15. Muhammad Amin al-Sindi. (n.d.). Ima' al-Nazar.
16. Abdul Hayy al-Laknawi. (1995). Zafar al-Amani. Aleppo: Maktabat al-Matbu'at al-Islamiyyah.
17. Ibn Qassar. (1996). Muqaddimah fi Usul al-Fiqh. Dar al-Gharb al-Islamiyy.
18. Abu Ishaq Ibrahim al-Hanbali. (2008). Wadih fi Usul al-Fiqh (Vol. 2). Saudi Arabia: Maktabat al-Rushd.
19. Abu al-Fadl al-Kaluzani. (1986). Tamhid fi Usul al-Fiqh (Vol. 3). Jeddah: Dar al-Madaniyyah.
20. Muwaffaq al-Din Ibn Qudama. (1998). Rawdat al-Nazir wa Jannat al-Munazir (Vol. 1). Mecca: Maktabat al-Makkiyyah.
21. Muhammad Ibn Abdul Hadi. (2012). Sharh Ghayat al-Sul ila 'Ilm al-Usul. Kuwait: Ghuras.
22. Ibn al-Liham. (1980). Mukhtasar fi Usul al-Fiqh. Mecca: King Abdulaziz University.
23. Ibn al-Najjar al-Futuhi. (1982). Sharh Kawkab al-Muni (Vol. 1). Mecca: Umm al-Qura University..
24. Shinqitiy. (1999). Muzakkirotu fi usulil fiqh. Misr: Dorul Yaqiyn.
25. Bukhari, A.A. (1997). Kashf ul-asrar sharhu usul al-Bazdawi (Jild 2). Bayrut: Darul Kutub al-Ilmiyya.

